

LOKAL TARMOQNI LOYHALASHTIRISHDA MATEMATIK DASTURLASH MASALALARINI QO‘LLASH

Usmanjanova Nigora Shuxratali qizi
Namangan davlat universiteti “Raqamli ta’lim texnologiyalari” kafedrası
o‘qituvchisi

Axmedov Asliddinxon Komilxon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti “Amaliy matematika” yo‘nalishi 2-kurs
talabasi

Najmiddinov Ahliddin Sirojiddin o‘g‘li
American University of Technology universiteti 1-kurs "Software
engineering" yo‘nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada lokal tarmoqni sozlash, ularni dasturiy qismi matematik moduli haqida yoritib o‘tilgan. Bir to‘g‘ri chiziqda joylashgan kompyuterlarda tarmoq hosil qilish ni bir nechta qadamlarining matematik modeli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Nuqta, masofa, minimal, maksimal, yig‘indi, chiziq, to‘g‘ri chiziq.

Annotation: This article describes the configuration of a local network, the software part of which is a mathematical module. Mathematical model of several stages of network formation on computers located in a straight line is explained.

Key words: Point, distance, minimum, maximum, sum, line, straight line.

Аннотация: В данной статье описана настройка локальной сети, программная часть которой представляет собой математический модуль. Объяснена математическая модель нескольких этапов формирования сети на компьютерах, расположенных прямолинейно.

Ключевые слова: Точка, расстояние, минимум, максимум, сумма, линия, прямая.

Lokal tarmoqni sozlashda matematik dasturlash masalalari qo‘llanishi juda muhim ahamiyatga ega. Bu masalalar, ayniqsa tarmoqning samarali ishlab chiqarishni taminlash va turli xil resurslarni optimal taqsimlash uchun zarur bo‘ladi.

Lokal tarmoqni loyihalashtirishda matematik dasturlash usullarini qo‘llash samarali va optimal tizim yaratishga yordam beradi. Quyida matematik dasturlash usullari va ulardan lokal tarmoqlarni loyihalashtirishda foydalanishning qiziqarli jihatlarini ko‘rib chiqamiz:[1. B. 560]

Matematika Dasturlash Usullari

Chiziqli dasturlash: Bu usulda maqsad chiziqli cheklovlar va tenglamalar orqali ifodalanadi. Masalan, resurslarni optimal taqsimlash muammosini hal qilishda foydalaniladi.

Qo‘llanishi: Tarmoqning trafik oqimini boshqarish, tarmoq resurslarini optimal taqsimlash.

Dinamik dasturlash: Bu usulda muammo kichik qadamlar orqali yechiladi, har bir qadam oldingi qadamning natijalariga asoslanadi.

Qo‘llanishi: Tarmoqlarni qayta marshrutlash, optimal yo‘nalishlarni aniqlash.

Butun sonli dasturlash: Bu usulda barcha o‘zgaruvchilar butun sonli qiymatlar oladi, ya’ni aniq birliklar bilan ishlanadi.

Qo‘llanishi: Kompyuter tarmog‘ida tugunlarni joylashtirish va resurslarni taqsimlash.

Tarmoqlar nazariyasi: Tarmoqlardagi tugunlar va qirralarni optimallashtirish uchun ishlatiladi.

Qo‘llanishi: Tarmoq topologiyasini aniqlash, eng qisqa yo‘nalishlarni topish.

Lokal Tarmoqlarni Loyihalashtirish

Topologiya tanlash: Tarmoqning tuzilishi va ulanish usullari aniqlanadi. Masalan, yulduz, halqa yoki mash topologiyasi.


Trafik boshqaruvi: Tarmoq orqali ma’lumot oqimini boshqarish va optimallashtirish.


Resurslarni taqsimlash: Tarmoqdagi resurslar (masalan, keng tarmoqli ulanishlar) optimal taqsimlanadi.

Tarmoq xavfsizligi: Tarmoq xavfsizligini ta’minlash uchun xavfsizlik choralarini ko‘riladi.

Qo‘yilgan masalada N ta nuqta berilganda ularni tutashtiruvchi shunday A nuqtani topingki, bu masofalar yig‘indisi minimal bo‘lishi kerak. Avvaliga 1-7 ta nuqtalarni bir to‘g‘ri chiziqda deb qarab xulosa beramiz va keyingi holatlarda 2-va 3-o‘lchamlarni qarab o‘tamiz. Ko‘pincha kompyuterlar bir to‘g‘ri chiziq bo‘ylab joylashtiriladi. Yoki bir nuqtadan tarqaluvchi elektr simlari deb qaralsa ham bo‘laveradi.

Masala shartida kam material bilan ko‘plab elementlarni birlashtirish qo‘yilgan






$$\sum_{i=1}^n AA_i, \sum_{i=1}^n AB_i, \sum_{i=1}^n AD_i, \sum_{i=1}^n AD_i \dots$$

lardan minimum yig'indini hosil bo'ladigan A nuqtaning koordinatalarini topish kerak.

1) Avval 1 nuqta uchun hisoblasak minimal 0 metr ketadi (taqriban), ya'ni o'z ustida.


Buni 2 nuqta orasidagi masofa orqali ham isbotlash mumkin, ya'ni $x=x_0, y=y_0, z=z_0$, da masofa nolga teng,

2)



Barcha holatlarda gipotenuzalar yig'indisi katta bo'lib ketadi, shuning uchun minimal deb x_1 , va x_2 , ni tutashtiruvchi kesmani qarab chiqamiz.

3)



2 nuqta berilsa A nuqtani x_1 , dan kichik yoki x_2 , dan katta tomondan olib bo'lmaydi, chunki uzunlik ortib ketadi. Va biz A ni x_1 va x_2 orasidan olamiz va yig'indisi quyidagicha:


$$S = (A - x_1) + (x_2 - A)$$

Bunday bo'lishining sababi $x_1 \leq A \leq x_2$ ligi uchun.

$$S = x_2 - x_1$$

bo'ladi va A ga bog'liq bo'lmadi. Javob A nuqta x_1 va x_2 orasidagi ixtiyoriy nuqta.

4)



Avval A ni 2 xil vaziyatini qaraymiz.

1) $x_1 \leq A \leq x_2$, bunda

$$S = A - x_1 + x_2 - A + x_3 - A = x_3 + x_2 - x_1 - A$$

Agar A uchun maksimal qiymat berilsa S minimal bo'ladi.

Bu nuqta $A = x_2$

$$S = x_3 - x_1, x_2 \text{ qisqaradi.}$$


2) $x_2 \leq A \leq x_3$ dan olinsa;

$$S = A - x_1 + A - x_2 + x_3 - A = x_3 - x_2 - x_1 + A =$$

Endi esa A ning minimalini qo'yamiz. $A = x_2$;

$$S = x_3 - x_2 - x_1 + x_2 = x_3 - x_1$$

Va bular ikkala holatda ham minimal deb, x_2 ni ko'rsatmoqda.



5) Yuqoridagi 3 ta oraliqni qarab chiqamiz

1) $x_1 \leq A \leq x_2$

$$S = A - x_1 + x_2 - A + x_3 - A + x_4 - A = x_4 + x_3 + x_2 - x_1 - 2A \Rightarrow$$

A ni maksimal olsak, yig'indi minimal bo'ladi, $A = x_2$:

$$S = x_4 + x_3 - x_2 - x_1;$$

2) $x_2 \leq A \leq x_3$:

$$S = A - x_1 + A - x_2 + x_3 - A + x_4 - A = x_4 + x_3 - x_2 - x_1$$

3) $x_3 \leq A \leq x_4$:

$$S = A - x_1 + A - x_2 + A - x_3 + x_4 - A = x_4 - x_3 - x_2 - x_1 + 2A \Rightarrow$$


A uchun min qo'ysak, $A = x_3$

$$S = x_4 + x_3 - x_2 - x_1$$

ga keladi.

Bulardan ko'rinadiki A uchun mumkin bo'lgan qulay joy $x_2 \leq A \leq x_3$ bo'ladi.

6) Endi 5 ta nuqtani qaraymiz;



N ta nuqta uchun N-1 ta hol qaraladi .

1) $x_1 \leq A \leq x_2$

$$x_5 + x_4 + x_3 + x_2 - x_1 - 3A(\text{max})$$

2) $x_2 \leq A \leq x_3$

$$x_5 + x_4 + x_3 - x_2 - x_1 - A(\text{max})$$

3) $x_3 \leq A \leq x_4$

$$x_5 + x_4 - x_3 - x_2 - x_1 + A(\text{min})$$

$$4) x_4 \leq A \leq x_5$$

$$x_5 - x_4 - x_3 - x_2 - x_1 + 3A(\min)$$

Bundan

1. $x_5 + x_4 + x_3 + x_2 - x_1 - 3x_2 = x_5 + x_4 + x_3 - 2x_2 - x_1$
2. $x_5 + x_4 + x_3 - x_2 - x_1 - x_3 = x_5 + x_4 - x_2 - x_1$
3. $x_5 + x_4 - x_3 - x_2 - x_1 + x_3 = x_5 + x_4 - x_2 - x_1$
4. $x_5 - x_4 - x_3 - x_2 - x_1 + 3x_4 = x_5 + 2x_4 - x_3 - x_2 - x_1$

MUHOKAMA

Bularni solishtiramiz:

- 1) va 2):
 $x_5 + x_4 - x_1$ lar qisqarib ketadi va $x_3 - 2x_2$ va $-x_2 \Rightarrow$
 x_3 va x_2 qoladi bunda (1) > (2), biz kichigini olamiz ya'ni (2) ni.
- 2) va 3)
solishtirsak (2) = (3) bo'ladi.
- 3) va 4)
(3) < (4) bo'ladi.

XULOSA

N ta nuqta uchun oladigan bo'lsak, N juft son bo'lsa $N/2$ va $N/2 + 1$ -hadlari teng va biri olinadi. Agar N toq son bo'lsa, $(N+1)/2$ -hadi minimal bo'ladi.

Bu nuqtadan chiquvchi masofalar yig'indisi, agar n soni juft bo'lsa

$$\sum_{i=\frac{n}{2}+1}^n X_i - \sum_{j=1}^{\frac{n}{2}} X_j$$

va aksincha n soni toq son bo'lsa

$$\sum_{i=(n+3)/2}^n X_i - \sum_{j=1}^{(n-1)/2} X_j$$

formulaga asosan hisoblash mumkin.

Agarda $d = x_2 - x_1 = x_3 - x_2 = x_4 - x_3 = \dots$ bo'lsa

Formula osonlashadi ;

1 ta nuqta $0d$

2 ta nuqta uchun $x_2 - x_1 = 1d$

3 ta nuqta uchun $x_3 - x_1 = 2d$

4 ta nuqta uchun $(x_4 - x_2) + (x_3 - x_1) = 2d + 2d = 4d$

5 ta nuqta uchun $(x_5 - x_2) + (x_4 - x_1) = 3d + 2d = 6d$

6 ta nuqta uchun $(x_6 - x_3) + (x_5 - x_2) + (x_4 - x_1) = 9d$

7 ta nuqta uchun $(x_7 - x_3) + (x_6 - x_2) + (x_5 - x_1) = 12d$

Va xulosa qilnadiki, N toq son bo'lsa jami S masofamiz $S = d * (N * N - 1) / 4$;

Agar N juft son bo'lsa $S = N * N / 4$

Keyin bu ikki formulani umumiyashtirsak, ixtiyoriy N son uchun $S=d*(N*N-N\%2)/4$;
ko'rinishga keladi.
Masala bo'yicha $x_1 \leq x_2 \leq x_3 \leq \dots$ kabi beriladi.

Python dasturlash tiliga kiritish qismi:

```
N=float(input())  
d=float(input())  
print(d*(N*N-N%2)/4)
```

Bu yerda N nuqtalar soni, d o'zgarmas oraliq.

C# dasturlash tilida:

```
double N=double.Parse(Console.ReadLine());  
double d=double.Parse(Console.ReadLine());  
Console.WriteLine(d*(N*N-N%2)/4);
```

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Convex Analysis and Optimization, by Dimitri P. Bertsekas, with Angelia Nedić and Asuman E. Ozdaglar, 2003, ISBN 1-886529-45-0, 560 pages
2. Usmanjanova N., Muradova K. C++ dasturlash tilida strlar bilan ishlash: C++ dasturlash tilida strlar bilan ishlash //MODERN PROBLEMS AND PROSPECTS OF APPLIED MATHEMATICS. – 2024. – T. 1. – №. 01.
3. Нуралиев, Ф. А., Юлдашев, Ш. Ш., Кулдашева, М. Н., Усманжанова, Н. Ш., Тухтасинов, Ш. Ш., & Марасулова, Д. Ю. (2023). ОПТИМАЛЬНЫЕ ИНТЕРПОЛЯЦИОННЫЕ ФОРМУЛЫ ТИПА ЭРМИТА В ПРОСТРАНСТВЕ СОБОЛЕВА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 113-136.